

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Yoqubov, D.Sh.Sultonov, M.U.Maxmudov, A.Z.Rasuljonov, I.I.Zokirov	
Kuzgi tunlam (<i>Agrotis segetum</i>) lichinkalari morfometrik o'lchamlarining ozuqa o'simligiga bog'liqligi	124
A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov,	
B.J.Mavlanov, B.Y.Hamraliyev	
Farg'ona viloyatida <i>Capparis spinosa</i> L. ning tabiiy resurslari	130
A.B. Karimov, Sh.X. Xomidchonova	
Morfologicheskie izmeneniya tkani prymoi kishki posle khimicheskikh vozdeystviy.....	139
A.I.Iskandarov, G.S.Mirzayeva, M.O.Xudoyberdiyeva, D.M.Musaev, Sh.N.Nazarov,	
B.R.Xolmatov, M.N.Valiyeva	
Haqiqiy qalqonli qandalalar (Pentatomidae) ayrim turlarining molekulyar genetik identifikatsiyasi.....	142
A.A.Yoqubov, I.I.Zokirov	
Tuproq tarkibining kuzgi tunlam (<i>Agrotis segetum</i>) g'umbagi hayotchanligi va kapalak chiqish darajasiga ta'siri	150
M.T.Botirov, E.A.Ergashev	
Kristallanish jarayoni va yoriqlar paydo bo'lishida albumin eritmalari konsentratsiyasining ta'siri	155
F.Xolboev, B.Shodihev, F.Shodiyeva	
O'zbekistonda Coraciiformes turkumi turlarining uchrash xususiyatlari va tarqalishi.....	160

QISHLOQ XO'JALIGI

M.A.Avliyakulov, N.N.Yaxyoyeva	
S-8286 g'o'za navini egatlab va tomchilatib sug'orish me'yorlari	165

GEOGRAFIYA

L.Z.Ibragimov, G.B.Barotova	
Urbanizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishini o'rganishning ba'zi masalalari	170
Sh.X.Boboyev	
Samarqand viloyati agrosanoat klasterlarining iqtisodiy samaradorligini baholash	179
T.N.Yarboboyev, K.Y.Qosimova	
Kaliy ma'danlarini qazib olish va qayta ishlash obyektlarida atrof-muhitni muhofaza qilish mezonlari	189

ILMIY AXBOROT

Z.Z.Aliyev, Y.M.Melixodjayev	
Bolalarda tug'ma ixtizoz kasalligi va uning kelib chiqish sabablari.....	194
A.E.Normatov, L.T.Yuldashev	
Neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarni Eyxorniya yuksak suv o'simligi yordamida tozalash biotexnologiyasi (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi misolida)	197

**УО'К: 598.2:591.5 (575)**

**O'ZBEKISTONDA CORACIIFORMES TURKUMI TURLARINING UCHRASH
XUSUSIYATLARI VA TARQALISHI**

**ХАРАКТЕРИСТИКА И РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВИДОВ ОТРЯДА КОРАКООБРАЗНЫХ
В УЗБЕКИСТАНЕ**

**CHARACTERISTICS AND DISTRIBUTION OF SPECIES OF THE ORDER
CORACIIFORMES IN UZBEKISTAN**

Faxriddin Xolboyev

O'zbekiston milliy universiteti, Zoologiya kafedrasи professori

Botirali Shodiyev

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi deputati

Fotima Shodiyeva

O'zbekiston milliy universiteti, Ekologiya kafedrasи doktoranti

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda Coraciiformes turkumiga mansub bo'lgan qushlarning uchrash xususiyalari va turli yashash muhitlari bo'yicha tarqalishiga tegishli yig'ilgan materiallarning natijalari keltirilgan. Mazkur turkumga mansub turlarning ornitologik fondlarda saqlanayotgan nuxxalarini qiyosiy o'rganish asosida hozirga vaqtida ularning tarqalishida sodir bo'layotgan o'zgarishlar aniqlangan va tahlil qilingan. Turlarning tarqalishiga tegishli ma'lumotlar asosida O'zbekiston hududida ularning yashashi uchun eng qulay bo'lgan yashash muhitlari tavsiflangan.

Аннотация

В статье представлены результаты собранного материала, касающиеся характера пребывания и распространения птиц отряда Coraciiformes в Узбекистане. На основе сравнительного изучения экземпляров видов, относящихся к этому отряду и содержащихся в орнитологических фондах, определены и проанализированы изменения, происходящие в их распространении в настоящее время. На основе данных о распространении видов описаны наиболее благоприятные для их существования места обитания на территории Узбекистана.

Abstract

The article presents the results of the collected material concerning the occurrence and distribution of birds of the order Coraciiformes in Uzbekistan. Based on a comparative study of specimens of species belonging to this order and contained in ornithological collections, changes in their distribution at present were identified and analyzed. Based on data on species distribution, the most favorable habitats for their existence in Uzbekistan are described.

Kalit so'zlar: Coraciiformes, Coracias garrulus, Alcedo atthis, Breeder, Resident, ornitologik kolleksiya**Ключевые слова:** Coraciiformes, Coracias garrulus, Alcedo atthis, Breeder, Resident, орнитологическая коллекция**Key words:** Coraciiformes, Coracias garrulus, Alcedo atthis, Breeder, Resident, ornithological collection**KIRISH**

O'zbekistonda Coraciiformes turkumiga mansub 4 ta tur uchraydi. Adabiyotlarda ularning uchrash xususiyatlari, tarqalishi va soniga tegishli materiallar o'tgan asrning 60 yillarigacha bo'lgan muddatda yig'ilgan bo'lib, ancha eskirgan va ular bugungi kunda amaliyotda foydalanish imkonini bermaydi. Oxirgi yillarda mazkur turlarning yashash muhitlariga bo'layotgan turli ta'sirlar ularning regionda tarqalishi va soniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turlarning tarqalish xususiyatlari va sonida bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash ularni muhofaza qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlarini belgilash, turlarning evolyusiyasida bo'layotgan adaptiv moslanishlarning yo'nalishlarini aniqlash imkonini berishi bilan dolzarbdir.

BIOLOGIYA

TADQIQOT MATERIALI VA USLUBLARI

Maʼvzuga tegishli materialar 2021-2024-yillarda Toshkent, Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridan yigʼildi. Materialarni yigʼishda ekologik va zoologik va Tadqiqot davomida vizual kuzatish, qushlarning hisobini oʼtkazish uslublaridan foydalanildi. Qushlarning sanogʼi boʼyicha hisob ishlari sanoq oʼtkazishdan koʼzlangan maqsad va sanoq oʼtkaziladigan joyning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, marshrutda hisobga olish va nuqtali hisobga olish uslublari asosida bajarildi. Qushlarni hisobga olish boʼyicha yigʼilgan materialarning natijalari N.G Chelinsev, 1985 tomonidan taklif qilingan quyidagi formula boʼyicha bajarildi [7,8]:

$$D=n/L \times W;$$

Bunda D – zichlik; n – hisobga olingan qushlar soni; L – marshrut uzunligi; W – marshrut eni yoki marshrut oʼqidan hisob olib borilgan yoʼlakning chegarasigacha boʼlgan masofa.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Dunyoda koʼkqargʼasimonlar (Coraciiformes) turkumiga mansub boʼlgan 193 ta tur uchraydi. Ular 48 (54) avlod va 10 ta oilaga birlashtiriladi. Mazkur turkumga mansub boʼlgan turlarning koʼpchiligi tropik mintaqada va juda kam qismi moʼtadil zonada yashashga moslashgan. Oʼzbekistonda Coraciiformes turkumiga mansub 4 ta tur uchraydi, ular 3 ta oila va 3 ta avlodga mansub (jadval).

1-jadval

Soraciiformes turkumiga mansub turlarning taksonomik tahlili

Turkum	Oilalar	Avlodlar	Turlar	Uchrash xususiyati
Koʼkqargʼasimon lar-Soraciiformes	Koʼk qargʼalar-Coraciidae	Coracias	Koʼk qargʼa (<i>Coracias garrulus</i>)	BM
	Koʼktargʼoqlar-Alcedinidae	Alcedo	Koʼktargʼoq (<i>Alcedo atthis</i>)	R
	Kurkunaklar-Meropidae	Merops	Kurkunaklar- Meropidae	BM
			Koʼk kurkunak (<i>Merops persicus</i>)	BM

Uchrash xususiyatiga koʼra, Coraciiformes turkumiga mansub turlardan 3 tasi, yaʼni koʼk qargʼa (*Coracias garrulus*), tillarang kurkunak (*Merops apiaster*) va koʼk kurkunak (*Merops persicus*) BM- Breeder/Migrant, uchib oʼtuvchi-uyalovchi (kelib uya qilib ketuvchi), 1 ta turi, yaʼni koʼktargʼoq (*Alcedo atthis*) R-Resident, oʼtroq tur sanaladi.

Coraciiformes turkumi turlarining Oʼzbekistonda tarqalishigi tegishli maʼlumotlarni ularning respublikamizdagi asosiy Ornitologik fondlarda saqlanayotgan kolleksiyalarini oʼrganish va tahlil qilishdan boshladik.

Oʼzbekistondagi yirik Ornitologik kolleksiyalarda saqlanayotgan nusxalarni tahlil qilish va shaxsiy kuzatishlarimizga koʼra, ushbu turlarning Oʼzbekistonda keng tarqaganligi aniqlandi [6] (jadval).

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlar hozirgi sharoitda ushbu turlarning tarqalishini etarli darajada ochib bermaydi. Bizning kuzatuvlarimiz natijalariga koʼra, *M. persicus* asosan Zarafshonning oʼrtा va quyi oqimida (Samarqand va Buxoro viloyatlari) va Fargʼona vodiysida, *M. apiaster* esa asosan Toshkent va Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpogʼiston Respublikasida keng tarqalgan. Ammo hozirgi vaqtida qayd etilgan viloyatlarda har ikkala turning tarqalish areallarini maʼlum darajada qoʼshilib ketganligi aniqlandi. Jumladan, 2021 yil 18 va 20-avgust kunlari Buxoro viloyati Jondor tumani Ibn-Sino MFY hududida joylashgan asalarichilik xoʼjaligidan ushlangan 15 ta kurkunakning 7 tasi *M. apiaster*, 8 tasi *M. persicus* turlariga tegishli ekanligi aniqlandi. Xuddi shunday ushbu turlarning bir necha marta aralash holda birgalikda oziqlanishda uchrashi qayd etildi.

O'zbekistonda tarqalgan va ornitologik kolleksiyalarda saqlanayotgan Soraciiformes turkumi turlarining nusxalarini to'g'risida ma'lumot

Fondda saqlanayotgan nusxalar haqida ma'lumotlar	Ornitologik kolleksiya saqlayotgan fond nomi				
	O'zFA Zoologiya instituti Ornitologik kolleksiysi	O'zbekiston universiteti kolleksiysi	Milliy Ornitologik tablital muzeysi Ornitologik kolleksiysi	Samarqand universiteti kolleksiysi	davlat Ornitologik vilyoyat muzeysi Ornitologik kolleksiysi

Ko'k qarg'a (*Coracias garrulus*)

Fondda saqlayot gan nusxalar soni	41	74	15	130	14	274
Qushlar ushlangan joy nomi*	14; 15; 16; 17; 19; 26; 27	14; 16; 17; 19; 24; 26; 27	14; 16; 17; 24; 26	16; 20; 27	20; 27	

Ko'ktarg'oq (*Alcedo atthis*)

Fondda saqlayot gan nusxalar soni	14	122	10	3	6	155
Qushlar ushlangan joy nomi*	14; 17; 19; 26; 27	14; 16; 19; 24; 26; 27	16; 19; 24; 26	20; 27	20; 27	

Tilla rang kurkunak (*Merops apiaster*)

Fondda saqlayot gan nusxalar soni	12	61	4	24	9	10
Qushlar ushlangan joy nomi*	15; 19; 20; 26; 27	17; 19; 20; 26; 27	17; 26	18; 20; 27	20	

Ko'k kurkunak (*Merops persicus*)

Fondda saqlayot gan nusxalar soni	24	43	10	4	5	86
Qushlar ushlangan joy nomi	14; 15; 16; 17; 19; 26	9; 14; 15; 16; 17; 19; 26; 27	14; 17; 19; 26	20	17; 20	

Izoh: *-geografik rayonlarning raqamlarda ifodalananishi 9-Ustyurt platosi; 14-Amudaryoning o'rta va quyi oqimi; 15-Orol dengizining qirg'oqlari, Amudaryo va Sirdaryo deltasasi; 16-Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi, Mirzacho'l; 17-Qizilqum; 18- Qashqadaryoning o'rta va quyi oqimi, Qarshi dashti, Sundukli qumlari; 19- Toshkent va uning atrofi, Chirchiq, Keles va Ohangaron daryolari atrofidagi tekistiklilar; 20-Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimi; 24-G'arbiy Tyon-Shon tizmalari; 26-Farg'ona vodiysidagi past tekistiklilar; 27-Pomir-Oloy: Pomir, Turkiston, Zarafshon, Hisor, Nurota, Qoratov, Ko'hitang.

Adabiyotlarda turlarning tarqalish xususiyatlari va yashash muhitlari sifatida keltirilgan joylarni O'zbekistondagi shunday joylar bilan qiyosiy tahlil qilganda, ba'zan ularning o'zaro

BIOLOGIYA

nomuvofiqligi namoyon bo'jadi [9,10,11,12]. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har qanday turning turli populyasiyalari tomonidan yashash muhiti sifatida tanlangan biotoplar ushbu turning tarqalish arealini turli qismlarida turlicha bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bahorgi va kuzgi migrasiyalar davrida va ba'zan ko'payish davrida *M. apiaster* va *M. persicus* ning sporodik tarqalishi va populyasiyalarning aralash jamoalar hosil qilishi kuzatiladi. Ushbu holat har ikkala turlarning respublikamizdagi tarqalish areallari to'g'risida yakuniy xulosa chiqarishni murakkablashtiradi. Bu vaziyat bahorgi migrasiya davrida har ikkala turning respublikamiz hududiga janubdan kirib kelishi va kuzgi migrasiyaning teskari yo'naliishda sodir bo'lishi, global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq holda *M. persicus* ning ko'payish arealining tog' va tog' oldi zonalari, *M. apiaster* arealining esa yanada shimolga tomon siljishi bilan izohlanadi. Ilmiy manbalarda turlarning sinantropizasiyalashuvi, urbanizasiyalashgan hududlarda antropogen omillarga moslashuvi va global iqlimi o'zgarishlar natijasida ularning tarqalish areallarining o'zgarishi, migrasiya va ko'payish muddatlarining siljishi qayd etiladi [1,2,3,4,5,13]. Jumladan, ko'k qarg'aning Markaziy Osiyoda kuzgi migrasiyasining boshlanish va tugashi muddatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, kuzgi migrasiya juda uzoq davom etadi. Alovida vakillarning juda kechki muddatlarda qayd etilishi ham yuqorida qayd etilganidek iqlimi omillar, ya'ni oxirgi yillarda global issiqlik va cho'llashish kabi omillar hamda ayrim populyasiya vakillarini migrasiya uchun etarli energetik zaxirani yig'a olmaganligi bilan bog'liq. Bu hodisa qushlarda migrasiya oldidan sodir bo'ladijan giperfagiya va gipogenez jarayonlari bilan ham izohlanish mumkin. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ko'k qarg'alar o'zlarining reproduktiv sikllari kechgan joylarda sentyabr oyining boshlaridan boshlab juda kamdan-kam hollarda va kam sonda uchraydi. Bu vaziyatni ularning uyalash maskanlarida ozuqa resurslarining kamayib ketganligi va migrasiya uchun etarli energetik resurslarni topish uchun boshqa joylarga mahalliy tarzda ko'chishlari bilan isbotlash mumkin. Jumladan, 2024 yil 1 sentyabr kuni Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani va 2 sentyabrdagi Zangiota tumanida ko'k qarg'alar uya qurgan stasiyalarda ularning uchrashi qayd etilmadi. Ta'kidlash lozimki, mazkur turlarning tarqalishida zonallilik prinsipining amal qilishi ma'lum darajada o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

XULOSA

Oxirgi yillarda O'zbekistonda uchrovchi Soraciiformes turkumiga mansub turlarning uchrash xususiyatlari va regiondagи turli biosenozi bo'yicha tarqalishida ma'lum darajada siljishlar sodir bo'lganligi aniqlandi. Mazkur siljishlar ularning bahorgi va kuzgi migrasiya muddatlarining boshlanish hamda yakunlanish muddatlarining o'zgorganligida, Merops apiaster va Merops persicus turlarining tarqalish areallari ma'lum darajada o'zaro qo'shilib ketganligida va ularning ilgari xos bo'limgan yashash muhitlarini o'zlashtirishida namoyon bo'lmoqda. Mazkur o'zgarishlarni o'rganish kelgusida Soraciiformes turkumi turlarini muhofaza qilish va ularning xattiharakatini boshqarish yo'naliishidagi amaliy tadbirlarni bajarishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Балдаев Х.В., Попов А.В. О распространении и экологии золотистой щурки в Республике Марий Эл // Актуальные проблемы изучения и охраны птиц Восточной Европы и Северной Азии. – Казань, 2001. – С. 64-65.
- Бутьев В.Т. и др. Птицы России и сопредельных регионов. Ракшеобразные. Товарищество научных изданий КМК. Москва, 2005- С. 242-267.
- Вилков Е.В. Особенности экологии щурок (*Merops apiaster*, *M. superciliosus*) в Дагестане, как районе интенсивных миграций // Юг России: экология, развитие. – Том 11, № 3, 2016. – С. 90-105.
- Гулгенов С. Ж. Эколо-фаунистический анализ сообществ птицесельских населенных пунктов Байкальской Сибири: Автoreф. дисс. ... канд. биол.наук. Улан-Удэ, –2007. – 19 с.
- Захидов Т.З. и др. Природа и животный мир Средней Азии. Т.2. – Ташкент: Ўқитувчи, 1971. – С. 274.
- Кашкаров Р.Д. Справочный каталог зоологических коллекций Узбекистана: Птицы. Млекопитающие // Ташкент: Фан. – 2009. – 315 с.
- Песенко Ю.А. Принципы и методы количественного анализа в фаунистических исследованиях. – Москва: Наука, 1982. – 284 с.
- Равкин Е.С., Челинцев Н.Г. Методические рекомендации по комплексному маршрутному учету птиц // М.: Изд. ВНИИ Природа. 1990. –33 с.
- Рустамов А.К. Сизоворонка // Птицы Средней Азии. Том 1. – Алматы, 2007. – С. 494-502.
- Рустамов А.К. Обыкновенный зимородок // Птицы Средней Азии. Том 1. – Алматы, 2007. – С. 502-506.

11. Рустамов А.К. Золотистая щурка // Птицы Средней Азии. Том 1. – Алматы, 2007. – С. 506-510.
12. Рустамов А.К. Зеленая щурка // Птицы Средней Азии. Том 1. – Алматы, 2007. – С. 510-516.
13. Шодиева Ф.О., Холбоев Ф.Р. Распространение, экология и значение рода щурки (*Merops*) в Узбекистане // Хоразм Маъмун академияси ахборонномаси. – Хива, 2021. – 10. – Б. 97-102.